



Zohida AMIROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD

DSc, professor T.Qo'chqarov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YURAK" KONSEPTINING EMOTSIONAL KO'RINISHI

Annotatsiya

Ingliz tilidagi "heart" o'zbek tilida "ko'ngil" deb tarjima qilinishi mutanosibligi diqqatni tortadi. Bu bizning o'zbek tilidagi "ko'ngil" ingliz tilidagi "yurak" bajargan vazifani bajarishi haqida fikrimizni tasdiqlaydi. Ba'zi olimlar tuyg'ular universal emas deya hisoblaydilar, ularning tabiati va tushunilishi insonning lingvoetik tegishliligi, madaniyat tipi va boshqa ba'zi omillarga bog'liq.

Kalit so'zlar: sarosimaga tushish, o'z-o'zi ustidan nazoratni yuqotish, qo'rquv, dahshat, yurak, qahr, qayg'u, dard, alam.

EMOTIONAL VIEW OF THE CONCEPT OF "HEART" IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation

It is noteworthy that the English word "heart" is translated as "heart" in Uzbek. This confirms our view that the Uzbek "heart" performs the function of the English "heart". Some scholars believe that emotions are not universal, their nature and understanding depends on a person's linguistic affiliation, type of culture and some other factors.

Key words: confusion, loss of self-control, fear, horror, heart, anger, sorrow, pain, anguish.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ВЗГЛЯД НА КОНЦЕПТ «СЕРДЦЕ» В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Примечательно, что английское слово «сердце» переводится с узбекского как «сердце». Это подтверждает нашу точку зрения о том, что узбекское «сердце» выполняет функцию английского «сердца». Некоторые ученые считают, что эмоции не универсальны, их природа и понимание зависят от языковой принадлежности человека, типа культуры и некоторых других факторов.

Ключевые слова: растерянность, потеря самообладания, страх, ужас, сердце, гнев, печаль, боль, тоска.

Boshqalari, aksincha, tuyg'ular universal deb hisoblaydilar: istalgan tuyg'u "umumhammabob": u insonning his qilinishi uchun u yoki bu etnik va lisoniy jamiyatning turli hil madaniy parametrlaridan qat'iy nazar ochiq. Uchunchi, kompromiss pozitsiya ham mavjud. Bu nazariyaga binoan, his-tuyg'ular-genitik xoslangan fenomendir, lekin odamlar faqat tajriba orqali ular ifodasining madaniy maxsus qoidalarini o'rganadilar. N.A.Krasanskiy qayd qilganidek, "tuyg'u", "his", "effekt" atamalarining qat'iy belgilangan belgilangan ma'nolari yo'q va psixologiyada bu qarindosh tushunchalar-"tuyg'u", "his", "effekt"ning aniq chegaralangan atamaviy qo'llanish chegarasi va bir ma'nosi yo'q. Olim "tuyg'u" atamasini jamlovchi tushuncha sifatida qo'llaydi. Muallif tomonidan, shuningdek ruhiy holatlarning tasnifi masalasiga to'xtalinadi va u bazis (ba'zaviy fundamental) va ishlab chiqaruvchi, perifeali turlarini ajratadi. Tasnif negiziga, muallifning fikri bo'yicha, filogentik mezon asos qilib olingan bo'lishi mumkin. Ba'zi tuyg'ular kelib chikishiga ko'ra, tabiatiga ko'ra esa elementar maxsus emas.

"His" va "tuyg'u" atamalari o'rtasida qat'iy chegaraning aniq emasligidan mazkur tadqiqotda ikki atamadan ham foydalanildi. Tuyg'u borasida "yurak" konsepti alohida o'rin tutadi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan ikki tilda mavjud "yurak" so'zining lug'aviy definitisyalari qo'shadigan bo'lsak, qo'yidagi tuzilish hosil bo'ladi:

1) Qon aylanish markaziy a'zosi (har ikkala tilda ham); tuyg'ular, hayajonlar, kayfiyatlar hissiyotlar to'planish belgisi (har ikkala tilda ham);

2) Tafakkur, ko'chuvchan tafakkur-nimaningdir bosh qismi, markaz, yurak shakliga ega barcha tasvirlar, ob'ektlar (ingliz va o'zbek tillarida);

3) Sevgan insonga murojaat (ingliz va o'zbek tillarida).

Biroq definitisyaning bunday tuzilishi "yurak" konseptining to'liq manzarasini bermaydi. V. N. Teliyaga ergashib, biz ham ta'kidlaymizki, xalqning madaniy-milliy o'zini anglash translyatsiyasi va identifikatsiyasida muhim rolni til bajaradi. Muallifning fikricha, tilda, unga harakterli obrazlar, etalonlar, stereotiplar, mifologiya, ramzlar va shu kabilarda xalq dunyoqarashni va uni tushunishi, madaniy an'analar kontekstida qayd qilinadi. Aynan shu mutanosiblik til nafaqat reallikni o'zining sodda shakldagi ko'rinishda aks ettiradi, balki uning fragmentlariga olamning lisoniy manzarasi qadriyatlarini nuqtaiy nazaridan munosabatini ham namoyon qilish bilan birga avloddan avlodga uzatiluvchi madaniy milliy qo'rilmalari va til tashuvchisi bo'lgan xalqning urf-odatlarini ko'rsatadi.

Yurakning muhimligi uni inson ma'naviy hayotining markaziga, tuyg'ular, kayfiyatlar, fikrlar, iroda, diniy e'tiqodlar omboriga aylantiradi.

Har ikkala dunyoning til manzarasida "yurak" eng avvalo his-tuyg'ular ramzi, his-tuyg'ular ombori hisoblanadi. Bazaviy tuyg'ularga "qurquv", "qahr", "quvonch-lazzat", "dard", "qayg'u" kiradi.

"Qo'rquv" ma'noli semantik guruh:

- "sarosimaga tushish", "o'z-o'zi ustidan nazoratni yuqotish"

- qo'rquv, dahshat;

- sarosima;

- nimadandur qo'rqib qolish;

- qo'rquvga tushish;

- qo'rquv, dahshat;

- kimnidir qo'rqitish; qo'rquv yuborish (ayn.: yurakni so'g'irib olish); tushgan yurak bilan-qo'rqan holda; qo'rquv dahshat sezgan holda;

One's heart leaped into one's mouth (or throat)- qo'rqish, juda qo'rqish; yuragi tovoniga tushib ketdi (ayn.: yuragi og'ziga sakradi (yoki tomog'iga tiqildi));

Heart leap out of his mouth, shuningdek, *make somebody's heart leap out of his mouth*-o'ta qo'rqib ketish; oragi tovoniga tushib ketdi (ayn.:yuragi halqumidan chiqib ketdi).

Keltirilgan misollarga biz qo'rquv "oqibat"larini kuzatamiz. Har ikkala tilda, konseptning ichki shakli ko'rsatilayotganidek, qo'rquv yurakni "buzadi", uni joyidan siljitadi, bu esa qo'yidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi:

"I mean it", Sally stuck to her guns through her **heart sank**, "I won't have his sort of business transacted in my house" (K. Prichard "The Golden Miles". Ch I)

– *Men aynan shuni aytmoqchiman, garchi Sallining yuragi tovoniga tushib ketgan bo'lsa-da* (ayn.: yurak tushdi), *lekin Salli qat'iy turardi*. – *Men bunga o'xshash ishlar mening uyimda sodir etilishiga chidolmayman*.

Natijalar esa umuman kutilmagan bo'lishi mumkin: kuchdan batamom qolishdan tortib tasodifiy mobilizatsiyagacha. Ingliz tilidagi mtnlarda qo'rquv "yurak" harakatlari kuzatori hisoblanadi- u qo'rquvdan "sakraydi".

"Dard", "qayg'u" ma'noli semantik kichik guruh:

O'zbek tilida:

-qayg'u, dard, alam;

-og'ir qayg'uni boshdan kechirmoq;

-tinchsizlik, hayajon, (yurakdan va "tor", "siqiq");

-qattiq qayg'urmoq (dardni "tutish", "chuzilish");

-qayg'u, alam holati;

-qayg'u, g'am, alam;

-katta qayg'u, alam;

-baxtsizlik;

-g'am,alam;

-yurak yorilaman deydi, yurak qon bo'ldi;

ulkan g'am deya qabul qilish; kimgadir qattiq alam yetkazish (ayn.: yuragiga urush)

-qattiq qayg'urish (ayn.: yuragiga kirish);

-qayg'urish (ayn.: yuragiga yaqin olish);

-kimnidir hafa qilish (ayn.: yuragini siqish);

-xafa bo'lish, alam tortish; dard bilan tushkunlikka tushish (ayn.: yuragi kichrayapti)

Ko'rinadiki, "qayg'u", "alam" destruktiv harakterga ega, ularning yurakka ta'siri og'ir:

"Dard" yurakka "uradi", uni "kichraytiradi", uni "sindiradi", "aylantiradi".

Ingliz tilida:

heart-ache-chuqur qayg'u (heart dan "yurak" va *ache* "og'riq");

heart-break-dard, qayg'u (heart dan "yurak" va *break* "sindirish");

one's heart is broken-yurak singan; dard o'lgan;

one's heart is breaking-yurak yorilmoqda, yurak qonga to'lmoqda;

sry (weep) one's heart out- achchiq yig'lash; hamma ko'zlarni yig'lash; o'z dardini yig'lash (ayn.: butun yurakdan yig'lash);

You're very kind; I shall need a friend now. I am alone now, quite alone, and my heart is broken (H. Haggard, "Stella Fresenius", Ch. XVII. Ingl-ruscha lug'at, 533)- *Siz menga juda mehribonsiz; men hozir do'stga muhtojman. Men yolg'izman, va mening yuragim singan*.

"Dard" "yurak" da har ikkala tilda bir xil aks etadi, uning ta'siri halokatli: ingliz tilida "kimningdir yuragini

sindirish" shu odamni tamom qilish degani, va, bundan tashqari, bu o'lish demakdir.

Biroq, shuni qayd qilish lozimki, faqat o'zbek tilida "yurak" "jahl" konsepti tarkibiga kiradi. Mazkur konseptning nisbatan "batafsil" tasviri qo'yida: dard yurakni "uradi", "tutadi", "kiradi", "sindiradi", "kichraytiradi", "ishdan chiqaradi", "yaqin keladi".

"Quvonch"- "lazzat" ma'noli semantik guruh

O'zbek tilida:

- shodlik, yaxshi kayfiyat;

- quvonch;

- xursand bo'lish;

- ichdan sevinish (ayn.: yurak quvnamoqda);

Quvonch va g'am birga.

O'zbek tilida "yurak" "quvonch" konsepti tuzilishiga kiradi. Aynan u quvonadi, lekin quvonch botinish ko'rinmaydi, kulgiga aylanmaydi, u "ichki":

Shuningdek, shodlik faqat qayg'u fonida seziladi, ular uzviy bog'langan. Har kimning shodligi alohida.

Boylar shodligi- boyluk, kambag'allar shodligi-bolalar. O'zbek tilida "quvonch"ning "yurak"ka ta'siri kuzatiladi:

Yurak tug'ilgan kuni lazzati- (kinoya) chin dildan quvonch- yurak bayrami.

Ya'ni "quvonch" ijobiy tuyg'u sifatida xayotni "engillashtiradi", u "yurak"ni yengil, muvozanatsiz qiladi.

"Quvonch"ning "yurak"ka ta'siri ingliz tilli dunyo manzarasida mutanosib:

with a light heart- yengil ko'ngil bilan

it's a sad heart that never rejoices- quvonch bo'lmagan yurakka achinish kerak;

a light heart- xotirjamlik, shodlik (ayn.: yengil yurak).

Nobazaviy tuyg'ular semantik qaydi quyidagicha guruhlarda taqdim qilinadi: 1) "emotsional holat" (tuyg'u, holat); 2) "emotsional ta'sir, bir butunlikda qabul qilish" (sezgilar); 3) "emotsional kayfiyat" (kayfiyat); 4) "tuyg'u emotsiyalari" (notinchlik, qurquv, uyalish, qayg'u, tushkunlik va boshqa); 5) "emotsiyalarniboshdan kechirish sababi/nosababliligi" (Xavfni kutish); 6) "emotsiyaning sifatli hususiyatlari", masalan, ichki xarakterning kutilmaganda namoyon bo'lishi va shu kabi, (ichki, tashqi, kungilli, asabiy); 7) "emotsiyalarni boshqarilmasligi" (jilovlanmagan); 8) "emotsiyani kechirish intensivligi" (kuchli, katta, o'tkir, o'ta me'yordan oshiq, yengil); 9) "emotsiyalarning ijobiy/salbiy belgili yo'nalganligi" (quvnoq, alamzada, zerikarli, umidsiz tund, tushkunlikka tushgan). N.A. Karasavskiy tomonidan berilgan mazkur tasnif "yurak" konseptli semantik guruh materialida ham aniq ko'rsatilgan.

"Xavotir" ma'noli semantik guruh

- xavotir olish, tashvishli holat;

- ko'ngil xavotirlari, tashvishlari;

- xavotir, hasrat;

- kechinma;

- tashvish, vahima;

- jonsaraklik, hayajonlanish;

- tahlikali, tashvishli;

- dildan qayg'urish, nimadandir xavotir olish (ayn.: yurak qurimoq);

- yuragi siqildi;

- yurak o'rtayapti (ayn.: yurak aylantirmoqda).

- kim ko'p tashvish cheksa, tez qariydi.

- tashvishsiz tez semiradi.

O'zbek tilida "xavotir"dan:

Yurak qulayapti (qismlarga bo'linyapti, parchalanyapti)- ko'rquv, tushkunlik his qilayapti, tushkunlikka tushmoqda;

yurak (ko'ngil) joyida emas- kimdir tashvishlangan, o'zini juda notinch sezyapti;

yuragida jahannam-kimgadir juda og'ir;
yurakdan qayg'uradilar (ko'ngildan)- tashvish,
notinchlik his qilmoq;

yurak joyida emas- (hayajon, xavotirdan).

Xo'sh, nima Dice bo'ldingiz? Ta'zim, janob, osing,
Beri keling... yurak joyida emas.

Tashvish qilmoq. Varianti: ko'nglini g'ash qilmoq
nima; yurag(i) g'ash bo'ldi- yurag(i)nig'ash qilmoq;
yurag(i)ning bir chekkasi g'ash bo'ldi; dil(i) g'ash bo'ldi-
dil(i)ni g'ash qilmoq. Sinonimi: ko'ngl(i) xira bo'ldi-
ko'ngl(i)ni xira qilmoq; tashvish tortmoq; ko'ngl(i)ni
g'ashlamoq- ko'ngl(i) g'ashlandi. Antonimi: ko'ngl(i)
yorishdi- ko'ngl(i)ni yoritmoq. O'xshashi: ta'b(i) xira bo'ldi-
ta'b(i)ni xira qilmoq.

Ko'ngl(i) g'ashga to'ldi kimning. Qattiq tashvishda
bo'lmoq.

.... tirikchilik bu yerda ham hamma yerdagiday ekanini
darrov faxmladilar, ularning ko'ngillari yana g'ashga to'ldi.
P.Tursun. O'qituvchi.

Ko'ngl(i) g'ashlandi. gh. ko'ngl(i)ni g'ashlamoq.

Ko'ngl(i) g'ash tortdi kimning. Bir oz tashvish
qilmoq. Varianti: yurag(i) g'ash tortdi. Sinonimi: ko'ngl(i)
xiralashdi. O'xshashi: ko'ngl(i) g'ash bo'ldi; ko'ngl(i)
g'ashlandi.

Ko'ngl(i) g'ash kimning. Tashvishli, bezovta,
notinch. Varianti: ko'ngilning bir chekkasi g'ash (---); ko'ngil
g'ashligi (---); g'ash ko'ngl(i); yurag(i) g'ash; yurag(i)ning bir
chekkasi g'ash; yurak g'ash(i); dil(i) g'ash; g'ash dil(i).
Sinonimi: ko'ngl(i)xira; ich(i) g'ash. O'xshashi: ta'b(i) xira.

Boshqacha qilib aytganda, so'zning kichik shakli
to'g'ridan to'g'ri yurak ichida joylashgan tuyg'uga aloqador,
aynan "yurak", "his" qiladi, aynan yurak "his qiladi".

- kim, nimadir haqida qayg'urish; nimadir his qilish
(ayn.: yurakda o'syapti);

- yurakning to'riga tegish (ayn.: yurakka kirish);

- dildan qayg'urish (ayn.: dildan bilish);
- ko'ngil uchun yetarli (ayn.: yurakdan yulib olish);
- xavotirga tutish; xavotirlanish (ayn.: yurak tutilib
qoldi, "adashish");

- befarq bo'lish (ayn.: ko'ngil qoldi);

- yurakdan (ayn.: yurak chalg'ib ketdi);

Shunday qilib, tuyg'ular yurakda "o'sadi", unga
"kiradi", uni "cho'ktiradi", "unda qilinadilar", "u ularni
biladi", "undan o'tadi", uni adashishga majbur qiladilar.
Aynan tuyg'ularning "ich"da joylashishi ularni ko'ngilda sir
saqlashga olib keladi.

*What boastful father in the fullness of his heart ever
related such wonder of his infant as kit never wearied of
telling Barbara in the evening time, concerning little Jacob? –
Qaysi ota faxrdan hayajonlanib, o'zining ajoyib o'g'li haqida
shunday mu'jizalarni gapirishi mumkin. Kit kichik Jeykob
haqida oqshomlari Barbaraga so'zlab berishdan
charchamasdi? (Sh. Diskens. "The old Curiosity Shop".
ch.XXXVIII).*

Hislar "yurak"ni qizdiradi, tuyg'ular qanchalik
qizdursa, yurak "harorati" shunchalik ko'tariladi. Har ikkala
tilda ham "yurak"ni ochish hislarni to'kib solish demakdir.

Ingliz tilli dunyoning manzarasi "yurak"ni uy deb
tasvirlaydi. Uy - bu o'zida jamlagan barcha hossalari bilan
muqaddas, doim uyga qaytadilar. Yurak uyiga yetib borish –
demak odam markaziga, uning mohiyatiga yetib borishdir.
O'rganilgan manba "yurak" konseptining turli xil emotsional
aspektlarini namoyon qiladi. Amalda mazkur konsept
qatnashmagan emotsional soha mavjud emas. Har ikkala tilda
ham "yurak" – shubhasiz ramz, emotsiya va hislar "ombori".
Emotsiya va hislar unda aks etishi bilan birga shakllanadi
ham. Olingan lisoniy ko'rsatmalarga binoan yurakning
qo'yidagi universal parametrlarini keltirish mumkinki,
ularning o'zgarishi har ikkala til uchun ham xosdir.

ADABIYOTLAR

1. Bruner J/ Acts of Meaning Mass. –Harvard University Press. 1990. 258-p
2. Chomsky N. Language and Mind. –New York: Harcourt, Brace and Word. 1968.554-p;
3. Langacker R.W. Concept, image and symbol: The cognitive basis of grammar. –Berlin: Mouton de Gruyter, 1990.720 p;
4. Ротенберг В.С. Слово и образ. Проблемы контекста // Вопросы философии. 1980. -№4. –С.545
5. Рубинштейн С.Л. Основа общей психологии. –СПб. -2000. –С